



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



деген жерден адыгине уруусунун бийи Толубайдын Назбийке деген сулуу кызын жактырганда, кызын алыс жерге бергиси келбеген Толубай бий бүтүн эл-журту менен көчүп келүүнү талап кылып, буга макул болгон Мыкы баатыр элин көчүрүп жөнөмөк болгондо: «Эмгектеген жашты, эңкейген карыны таштайлы, жеа алыс, кийин алып кетербиз» деген жарлык түшүрөт. Алардын ичинен бир жигердүү жигит атасын таштагысы келбей, сандыкка салып алып жөнөйт да, жолдо бара жатканда суу таба албай кыйналышканда, конбой көчүп жүрүп алганда, талаадан түн ичинде күйгөн эки шам чыракты көрүп, аны тапмайынча көчпөйбүз деген өкүм болгондо сандыктагы карыя жол таап берип, кырдаалдан чыгарат (Кыргыздар, 169-171-бб.). Санжырадагы бул маалымат авторго байыркы жомок аркылуу белгилүү болуп, уруунун жер которушун түшүндүрүү үчүн эле даяр сюжетти колдоно койгон деген пикирдебиз.

Жыйынтыктай келсек, элдик жомоктордогу карыларга карата болгон мамиленин ушундай тарыхый, маданий, биологиялык, философиялык жана психологиялык маанилери бар. Бул маселе дагы да тереңирээк изилдөөнү талап кылат.

Адабияттар:

1. Алексеев Н.А. Ранние формы религии тюркоязычных народов Сибири. Новосибирск, 1980.
2. Велецкая Н. Н. Языческая символика славянских архаических ритуалов. – М.: Наука, 1978.
3. Кисляков Н. А. О древнем обычае в фольклоре таджиков / Фольклор и этнография. – Л.: Наука, 1970.
4. Үсөйүн ажы. Кыргыз санжырасы / Кыргыздар: он төрт томдук. IV том. – Б.: Бийиктик, 2011.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/RKKH9138
MAHMUD QOSHĠ'ARIYNING "DEVONU LUG'ATI-T- TURK" ASARIDAGI
AYRIM MAQOLLAR TASNIFI

Begmatova Dildora Abdunematovna

Mustaqil tadqiqotchi

e-mail: dildorab869@qmayl.com

Annotatsiya

Maqolada Mahmud Qoshġ'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asaridagi maqollar mazmun-mohiyati to'g'risidagi fikrlar yoritilgan. Asarda keltirilgan 300dan ortiq maqollarning mazmuniga ko'ra tasnifi aks ettirilgan. Maqollar yordamida tashqi olam va hayotiy hodisalar ochib berilgan. Maqolada ayrim maqollarning o'ziga xos poetik xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *Kechqurun, tong, shamol, bulut, yomg'ir, qor, quyosh, oy, qish, olov, suv, osmon, yer.*



Аннотация

В статье изложены мысли о содержании и значении пословиц из произведения Махмуда Кашгари "Девон лугатит-турк". В произведении представлено более 300 пословиц, которые классифицированы по их смыслу. С помощью пословиц раскрываются внешние мир и жизненные явления. В статье также анализируются некоторые уникальные поэтические особенности пословиц.

Ключевые слова: вечер, утро, ветер, облако, дождь, снег, солнце, луна, зима, огонь, вода, небо, земля.

Abstract

The article presents thoughts on the content and significance of proverbs from Mahmud Kashgari's work "Divan Lugat-it-Turk". The work features more than 300 proverbs that are classified according to their meanings. Through these proverbs, the external world and life phenomena are revealed. The article also analyzes some unique poetic characteristics of the proverbs.

Keywords: Evening, Morning, Wind, Cloud, Rain, Snow, Sun, Moon, Winter, Fire, Water, Sky, Earth.

Kirish. Mahmud Qoshg'ariy turkiy xalqlarning ijtimoiy-ma'naviy hayotiga daxldor bo'lgan ko'plab tushunchalarni anglatuvchi so'zlarning arab tilidagi ma'nolarini sharhlab bergan. Sharhlarda oddiy izohdan boshlab ayrim afsona va rivoyatlardan ham foydalangan. Ular orasida xalq maqollari ham salmoqli o'rinni tashkil etadi.

"Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan maqollarda o'sha zamon ruhi, dunyoqarashi, kishilarga, mehnatga munosabatning turli xil shakllari o'z ifodasini topgan. Maqollarda tabiat tasviri va yil fasllari misolida xalqning o'tmishi hamda kelajagi o'z aksini topgan. Bu— maqollar so'zlarning ma'no imkoniyatlari naqadar kengligini ko'rsatadi.

Erkä muñ tegir, tağ señirinjä yel tegir. Ma'nosi: "Yel tog' burni (cho'qqisi)ga tekkandek, qiyinchilik kishining boshiga tushadi. Tog' burnidan (cho'qqisidan) yel o'tib ketib, cho'qqi o'z holida qolganidek, kishidan ham qiyinchilik o'tib ketadi"[1:445].

Bu maqol inson hayotidagi sinovlar, qiyinchiliklar va ularning vaqtinchalik ekanligini ifodalaydi. Tog' cho'qqisiga yel urilgani kabi, inson hayotida ham qiyinchiliklar bo'lib turadi, lekin ular o'tib ketadi va inson o'z kuchini saqlab qoladi. Xuddi to'g'da shamol ta'sir qilib uni yemirganidek, yigitga ham kutilmagan qiyinchiliklar ro'para kelishi mumkin. Bu yerdagi mung so'zi bejiz qo'llanmagan. Mahmud Qoshg'ariyning o'zi bu so'zni shunday izohlaydi.

Мунг II – mung qiyinchilik, baxtsizlik, ya'ni insonning boshiga tushgan baxtsizliklarni sabr bilan ortda qoldirish mumkin. To'g' cho'qqisiga ham har qancha shomol tegmasin o'z joyidan siljimaydi, o'zgarmaydi. Kechagi og'riq bugun unutiladi, lekin inson o'z mohiyatini yo'qotmaydi. Bu maqol hayotning sinovlariga bardoshli bo'lish, sabr qilish va har qanday qiyinchilikdan keyin inson mustahkam qolishini anglatadi. Badiiy asarlar ham shuni ko'rsatadi: inson boshiga tushgan muammo shamoldek o'tib ketadi, lekin haqiqiy, inson o'z mohiyatini saqlab qoladi.



"Keδüglüg ölimäs, küwäçlig kürimäs. Ma'nosi: "Yopinchiqli kishi yomg'irdan ivimay, u bilan saqlanib qoladi, shuningdek, yugan qantarilgan bo'lsa, ot qashin olmaydi, sarkashlik qila olmaydi. Bu maqol ishda hozirlik ko'rishga undab aytiladi"[1:412].

"Keδüglüg ölimäs" "Keδüglüg" – yopinchiqlik, yomg'irdan himoya vositasi bor odam. "Ölimäs" – ivimaydi, nam bo'lmaydi, ya'ni, yomg'irda oldindan tayyorgarlik ko'rgan odam ivimaydi va qiyinchilikka duch kelmaydi. "Küwäçlig kürimäs" "Küwäçlig" – jilovlangan, nazorat ostidagi ot. "Kürimäs" – erkin harakat qila olmaydi, sarkashlik qila olmaydi. Ya'ni, jilovlangan ot boshqaruv ostida bo'lib, o'zicha harakat qilolmaydi. Bu iboralar oldindan tayyorgarlik ko'rish va nazoratni qo'ldan boy bermaslik zarurligini ko'rsatadi. Hayotda har qanday kutilmagan holatlarga oldindan tayyor bo'lish kerak. Yomg'irga yopinchiqlik bor odam tayyor bo'lgani uchun qiyinchilikka duch kelmaydi. Xuddi shunday, yaxshi reja va tayyorgarlik bilan ish ko'rgan odam qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Jilovlangan ot kutilmagan harakat qila olmagan kabi, tartibga solingan ish yoki har bir inson ham nojoiz va nomunosib ishlardan tiyiladi. Qolaversa, nazorat yo'q joyda tartibsizlik yuzaga keladi, shuning uchun har qanday muhim ishni intizom va reja bilan olib borish kerak. Har qanday katta natijaga erishish uchun avval tayyorgarlik ko'rish kerak. Jamiyatda yoki jamoada tartib bo'lishi kerak, aks holda, nazoratsiz ot kabi hamma o'z yo'liga ketadi. Katta hayotga oldindan tayyorgarlik ko'rgan yosh avlod turmushda qoqilmaydi, qiynalmaydi. Tegishli tayyorgarlik ko'rmagan odam esa og'ir vaziyatga tushib qoladi. Jamiyat va davlat boshqaruvida esa qonunlar va qoidalar jamiyatning "jilovi" bo'lib, ularni o'rnatmaslik tartibsizlikka olib keladi. Har bir davlat tartib-intizom orqali barqarorlikni saqlaydi. "Keδüglüg ölimäs, küwäçlig kürimäs" maqoli bizga shuni o'rgatadi: Har qanday vaziyatga oldindan tayyor bo'lish kerak. Ishning muvaffaqiyatli bo'lishi rejalashtirish va tayyorgarlikka bog'liq. Nazorat va intizom bo'lmasa, tartibsizlik yuzaga keladi. O'z vaqtida reja va chora ko'rgan inson hayotdagi qiyinchiliklardan osonroq o'tadi. Bu maqol insonni tartibli va oldindan o'ylangan hayot kechirishga undaydi.

Yalqsa yemä yağ eδgü, küysä yemä kün eδgü. Ma'nosi: "Kishi yog'dan bo'kib lohaslansa ham, u tuzsiz, totsiz taomdan yaxshidir quyosh kishini kuydursa ham, tuman va bulutli havodan yaxshidir"[1: 472].

Bu maqol inson hayotidagi sharoitlar, tanlov va muqobillar haqida fikr yuritadi. Uning mohiyati shundan iboratki, ba'zan og'irlik yoki zarar yetkazadigan narsa ham mutlaqo befoyda bo'lgan yoki yaxshilik keltirmaydigan narsadan afzal bo'lishi mumkin.

Maqolning birinchi qismi – "Yalqsa yemä yağ eδgü" (lohaslansa ham, yog' yaxshiroq) Bu maqol shuni anglatadiki, inson to'la-to'kis bo'lishi uchun oziq-ovqat tarkibida yog' bo'lishi kerak, hatto u me'yorida ham. Yog'li taomlardan so'ng odam o'zini biroz og'ir his qilishi mumkin, lekin u ochlikdan qiynalmaydi.

Maqolning ikkinchi qismi – "Küysä yemä kün eδgü" (quyosh kuydirsa ham, tuman va bulutdan yaxshiroq) inson tanasi va tabiat bilan bog'liq.



Bu tahlillar maqolning haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatadi: yog'siz hayot ochlik olib keladi, quyosh yetishmovchiligi esa inson sog'lig'iga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Qiyinchiliklarga qaramay, hayotda muhim bo'lgan narsalarni qadrlash lozim. Yog'li taom og'irlik qilsa ham, u quvvat manbai bo'lib qoladi.

Quyosh tanani kuydirsa ham, u hayot uchun zarurdir. Hayotda tanlov har :m nisbiydir. Mukammal sharoit yo'q: har bir yaxshi narsaning ham biror salbiy tomoni bo'lishi mumkin. Ish va mehnat insonni baxtli qiladi. Ba'zan og'ir mehnat (quyoshning kuydirishi kabi) yaxshi natijalarga olib keladi. Hech narsa qilmasdan yashash (bulutli havo kabi) insonni sust va befarq qiladi.

Ushbu maqolni yozishda shaklini biroz o'zgartirish yanada yangi va qiziqarli mulohazalarga sabab bo'lishi mumkin. Jumladan:

*Yalqsa yemä yağ eδgü,
küysä yemä kün eδgü.*

Maqolning ushbu ko'rinishida o'ziga hos bo'lgan asosiy bir hodisa: ritmik-sintaktik parallelizm juda ochiq ko'rinadi. Ayni mana shu holatda maqolda mujassamlashgan ichki bir tenglik, ma'noning yuzaga kelib chiqishiga yordam berayotgan shu aqliy hodisalar mohiyati ochiqroq ko'zga tashlanadi.

Aslida alohida-alohida ikkita hodisalarning o'zaro yaxlit holda bitta xukmning ikki xil shakli ma'lum bo'ladi.

Bu maqol hayotga realistik qarashni, muhim narsalarni qadrlashni va tanlovlarni ongli ravishda qilishni o'rgatadi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asarida keltirilgan maqollarda o'sha zamon ruhi, dunyoqarashi, kishilarga, mehnatga munosabatning turli xil shakllari aks etgan. Bu maqollar qadimgi turk urug'lari va qabilalari orasida keng tarqalgan bo'lib, ularning variantlari bizgacha yetib kelgan, bu maqollarning bir qancha variantlari hozirda ham xalq orasida keng qo'llaniladi.

Qalın bulutuğ tüpi sürär, qarañqu işiğ urunč açar. Ma'nosi: "Qora bulutdan osmonni bo'ron ochadi, shohlar eshigidagi mushkul ishni pora yechadi". Bu maqol mushkul ahvolda qolgan kishining, zarurat taqozosi bilan, pora berishga undab ayriladi[1:398].

Bu maqol ikki qismdan iborat bo'lib, har ikkisi ham hayotiy hodisalarni metaforik tilda tasvirlaydi. "Qalın bulutuğ tüpi sürär" "Qalın bulut" – qalin, zich bulut, ya'ni og'ir va qorong'i ob-havo sharoiti. "Tüpi sürär" – tubi ochiladi, ya'ni bo'ron kelib bulutlarni tarqatadi. Bu ibora tabiatdagi hodisaga asoslanadi: kuchli bo'ron va shamol zich bulutlarni yo'qotib, osmonni ochadi. "Qarañqu işiğ urunč açar" "Qarañqu" – qorong'ulik, murakkab va og'ir holat. "İşiğ urunč açar" – yorug'lik pul (poraxo'rlik) yordamida ochiladi. Ya'ni, murakkab va mushkul ish pora yoki pulli yo'llar bilan hal qilinadi. Bu ibora hayotdagi amaliy haqiqatni aks ettiradi: kuchli bo'ron bulutlarni yo'q qilgani kabi, hayotdagi mushkul vaziyatlarni ham katta kuch (yoki moliyaviy vosita) hal qiladi. Og'ir sharoitlar og'ir choralarga sabab bo'ladi. Qalin bulutlar – tabiatning muammosi. Qorong'ulik – ijtimoiy muammolar, og'ir sharoitlar. Bu holatda tabiiy kuchlar (bo'ron) yoki inson omili (pul yoki pora) muammoni hal qiladi. Katta kuch (yoki pora) yordamida to'siqlar bartaraf etiladi. Osmon qoplanganida bo'ron kelib,



bulutlarni tarqatib yuboradi. Kuchli inson yoki moliyaviy vosita (pora) bilan mushkul ishlarni hal qilish mumkin. Inson murakkab holatda qolganida, odatda poraxo'rlik orqali muammosini hal qilishga harakat qiladi. Bu maqol jamiyatdagi poraxo'rlik va nohaqlik bilan bog'liq muammolarni ochib beradi. Ba'zi jamiyatlarda odamlar mushkul ahvoldan chiqish uchun pora berishga majbur bo'ladilar. Yangi imkoniyatlar yoki qonuniy muammolar pul bilan hal qilinadi. Poraxo'rlik davlat boshqaruvi va ijtimoiy tenglikni buzadi. Agar shaxs faqat pul orqali muammosini hal qilsa, bu adolatsizlikka olib keladi. Maqolning ma'nosi shuni anglatadiki, ko'pchilik insonlar murakkab vaziyatda poraxo'rlikni chiqish yo'li sifatida ko'radi. Ko'p joylarda pora evaziga muammolar hal qilinadi. Masalan, sud jarayonlari, hujjatlar rasmiylashtirish kabi sohalarida ba'zan pora muammoni hal qiladi. "Qal'in bulutuĝ tüpi sürär, qaraŋqu işiĝ urunč ačar" maqoli hayotning achchiq haqiqatini ifodalaydi. Og'ir sharoitlar odatda kuchli ta'sir yoki resurs talab qiladi. Tabiiy qonuniyatlar (bo'ron bulutni tarqatgani kabi) jamiyat hayotida ham o'z aksini topadi. Insonlar murakkab sharoitda qolganida, ba'zan pora yoki moliyaviy ta'sir vositalariga murojaat qilishadi. Bu maqol insonlarni hushyorlikka chaqiradi va jamiyatdagi korrupsiya muammolariga ishora qiladi.

Qurmış kiriş tügülmäs, oqruqun taĝ egilmäs. Ma'nosi: "Qurigan yoyni bog'lab bo'lmaydi, shuningdek, arqon bilan tog'ni egib bo'lmaydi". Bu maqol arzimagan bir bahona bilan katta ishga kirishishni istagan kishiga nisbatan qo'llanadi[1:398]. Bu maqol ikki qismdan iborat bo'lib, har ikkisi ham qiyosiy taqqoslash orqali inson hayotidagi muhim qonuniyatlarni ifoda etadi. "Qurmış kiriş tügülmäs" – Qurigan yoyni bog'lab bo'lmaydi. "Qurmış" – qurigan, eskirgan, mo'rtlashgan. "Kiriş" – yoyni kamon qismi, tor yoki arqon. "Tügülmäs" – bog'lab bo'lmaydi, mustahkam bo'lmaydi. Ya'ni, qurib ketgan, mo'rtlashgan yoyni qanday bog'lamang, baribir ishlamaydi. "Oqruqun taĝ egilmäs" – Arqon bilan tog'ni egib bo'lmaydi. "Oqruqun" – arqon, ip. "Taĝ" – tog', katta tog' tizmalari. "Egilmäs" – egib bo'lmaydi. Ya'ni, qanday kuch ishlatmang, arqon bilan tog'ni egish mumkin emas. Bu iboralar bir-biri bilan bog'langan holda inson imkoniyatlarining chegarasini, aql va mantiq :rasida harakat qilish zarurligini bildiradi. Bu maqol insonning real hayotdagi imkoniyatlarini tushunish, ortiqcha umid bog'lamaslik va o'ta katta yoki imkonsiz ishlarga arzimas sabab bilan kirishmaslik kerakligini ifodalaydi. Imkonsiz narsani bajarish iloji yo'q. Bu maqol odatda kichik bahona yoki noto'g'ri sabab bilan ulkan maqsadlarga erishishga intiladigan kishilarga nisbatan qo'llanadi. Masalan, tajribasiz yoki bilimsiz odam biznes yoki siyosatda katta natijalarga erishishga harakat qilsa, bu maqol unga mos keladi. Ko'pchilik insonlar arzimas sabab yoki noto'g'ri motivatsiya bilan katta ishlarga urinishadi, lekin natijasi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Tajribasiz yoki bilimga ega bo'lmagan odam faqat bir necha kichik omillar (masalan, omad) asosida katta biznes boshlamoqchi bo'lsa, natija muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin. Faqat g'oyaga tayanib, yaxshi reja va mablag' bo'lmasa, biznes yuritish qiyin. Agar kimdir aql-idrok yoki dalillarsiz katta da'volar qilsa, u bu maqolga loyiq bo'ladi. Masalan, biror inson ilmiy dalillarsiz yirik nazariyalar haqida gapirsa, uning gaplari asosli bo'lmaydi. Biror munosabat



yoki do'stlik juda yomonlashgan bo'lsa, uni qayta tiklashga urinish bekor bo'lishi mumkin. O'tmishda qilingan katta xatolarni kichik o'zgarishlar bilan to'g'rilash qiyin. "Qurmish kiris tugulmas, oqruqun tag egilmäs" maqoli insonni real fikrlashga, imkoniyatlarini to'g'ri baholashga va o'ta katta ishlarni arzimagan sabablar bilan boshlamaslikka undaydi. Ba'zi narsalarni vaqt o'tishi bilan tuzatib bo'lmaydi. Katta maqsadlar uchun jiddiy reja va bilim zarur. Katta loyihalar yoki ishlarga arzimas sabab bilan kirishish muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin. Imkonsiz narsaga urinishdan oldin, vaziyatni tahlil qilish kerak. Bu maqol insonni mehnatsevar, mantiqiy va rejalashtirilgan harakat qilishga undaydi. Yuqoridagi maqolda ta'kidlab o'tilganidek, ushbu maqolda ham ritmik-sintaktik parallelizm hodisasi uchraydi.

*Qurmish kiris tugulmas,
oqruqun tag egilmäs*

Bunday sintaktik hodisalarni o'zbek xalq maqollarida ham ko'rish mumkin.

«Ota rozi — xudo rozi» [6:16]

Kuz keligi yayin belgölüg. Ma'nosi: "Kuzning qanday kelishi ko'klamdan ma'lum". Bu maqol oxiri boshidan bilinadigan ishlar haqida qo'llaniladi [1:378]. Bu maqol hayotiy hodisalar va sabab-oqibat qonuniyatlariga asoslanib, oldindan ko'rinadigan natijalarga ishora qiladi. "Kuz" – kuz fasli. "Keligi" – kelishi, ya'ni qanday bo'lishi. "Yayin" – bahor (ko'klam). "Belgölüg" – belgili, ya'ni oldindan ma'lum bo'lgan. Ushbu maqolni o'zbek xalq maqollarida ham uchrashi mumkin: "Kuzning qanday bo'lishi bahordan ayon." Bu iborada kuz faslining xususiyatlari bahordagi ob-havo va tabiatdagi o'zgarishlar bilan bog'liq ekani nazarda tutiladi. Maqol tabiat va iqlim qonuniyatlariga asoslanadi. Quyidagi ilmiy asoslarni ko'rish mumkin: Bahordagi harorat, yog'ingarchilik va boshqa omillar kuzgi ob-havoning qanday bo'lishini oldindan belgilaydi. Masalan, bahor yomg'irli va nam bo'lsa, kuz ham nam yoki sovuq bo'lishi mumkin. Agar bahor quruq va issiq bo'lsa, kuz ham qurg'oqchilik bilan kechishi ehtimoli yuqori. Bahor faslida o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi kuzgi hosilning qanday bo'lishini ko'rsatadi. Zararkunandalar va kasalliklarning ko'payishi yoki kamayishi kuzgi qishloq xo'jaligi natijalariga ta'sir qiladi. Maqol metaforik ma'noda hayotning sabab-oqibat munosabatlarini ham anglatadi. Harakatlarning natijasi oldindan seziladi. Masalan, o'qish va mehnat qilgan odamning kelajagi porloq bo'lishi kutiladi. Dangasalik yoki noto'g'ri qarorlar inson hayotida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. O'tmishda sodir bo'lgan hodisalar kelajakni shakllantiradi. Odamlar o'z harakatlari va qarorlarini uzoq muddatli natijalarga asoslab tanlashi kerak. Shaxsiy hayotda ham, jamiyatda ham oldindan belgilangan natijalarni inobatga olish muhim.

Kimin bilä qaş bolsa, yaşin yaqmas. Ma'nosi: "Kimning yonida qosh toshi (u bir oq tiniq toshdir) bo'lsa, chaqmoq unga zarar bermaydi". Chunki u toshning hislati shunday hattoki, u toshni bo'zga o'rab o'tga tashlasa, bo'z ham tosh ham kuymaydi. Bu sinalgandir. Tashna kishi og'ziga solsa, tashnalikdan qutiladi [1:330].



Maqol insoniy munosabatlar va hayotiy tajribalar bilan bog'liq bo'lib, uning ma'nosini chuqurroq tahlil qilish mumkin. "Kimin bila" – kim bilan. "Qas bolsa" – adovati, nizosi bo'lsa. "Yashin yapmas" – ko'z yoshi yashirmaydi, ya'ni sir tutilmaydi. So'zma-so'z tarjima qilinsa, "Kim bilan adovati bo'lsa, ko'z yoshi uni yashirmaydi" degan ma'no kelib chiqadi.

Bu maqol hayotda kim bilandir urushib, kelishmovchilikka borgan insonning yuragida alam va gina qolishini ifodalaydi. Kimki biror kishiga nisbatan g'azab yoki adovat saqlasa, uning his-tuyg'ulari yashirin qolmaydi, ya'ni ko'z yoshlari yoki harakatlari bilan oshkor bo'ladi. Adovat yoki g'azab yashirin qolmaydi, odamning yuzidan, so'zidan yoki harakatidan bilinib turadi. Qilgan dushmanchilik yoki nizoning ta'siri uzoq davom etadi, uni yashirib bo'lmaydi. Inson yuragidagi alam va dard oxir-oqibat tashqariga chiqadi. Bu maqolni quyidagi turli nuqtai nazardan tahlil qilish mumkin: Inson kim bilandir janjallasha, uning qalbida g'azab, xafalik yoki kin paydo bo'ladi. Agar odam ichidagi g'azabni bostirmasa, u bir kun kelib so'zlarida, yuzida yoki harakatlarida namoyon bo'ladi.

Bunday holatda inson o'zini tutib tura olmaydi, ko'z yoshlari yoki hissiyotlari oshkor bo'ladi. Jamiyatda nizolar, urushlar yoki kelishmovchiliklar uzoq davom etsa, ularning ta'siri o'chmaydi. Dushmanlik va adovat oxir-oqibat munosabatlarni yomonlashtiradi va insonlarni bir-biridan uzoqlashtiradi. Odamlar o'zaro munosabatlarda ehtiyotkor bo'lishi kerak, chunki dushmanlikni yashirib bo'lmaydi. Oila ichidagi kelishmovchiliklarni vaqtida hal qilmaslik oxir-oqibat achchiq va alamli xotiralarga olib kelishi mumkin. Do'stlar o'rtasida kelib chiqqan adovat uzoq saqlanib qoladi, uni yashirish qiyin bo'ladi. Oila nizolari: Agar er-xotin o'zaro kelishmovchilik qilsa, ularning yuzidan bu bilinib turadi, hatto harakatlari bilan ham his qilish mumkin. Do'stlar o'rtasidagi adovat: Kimdir yaqin do'stidan xafa bo'lsa, u buni yashirishga harakat qilsa ham, oxir-oqibat his-tuyg'ulari oshkor bo'ladi. Ish joyidagi kelishmovchilik: Agar kimdir boshqasi bilan ish yuzasidan tortishgan bo'lsa, u buni o'zida saqlay olmaydi va bir kun kelib g'azab yoki hafagarchilik ochilib ketadi.

Bu maqol bizga insoniy munosabatlarda ehtiyotkor bo'lishni o'rgatadi. Dushmanlik va adovatni yurakda saqlash natijasida inson o'zini qiynaydi va oxir-oqibat bu his-tuyg'ular baribir oshkor bo'ladi. Shuning uchun adovat qilishdan ko'ra, muammoni tinch yo'l bilan hal qilish yaxshiroqdir. Adovat yurakda uzoq saqlanib qolsa, uni yashirib bo'lmaydi. Inson o'z tuyg'ularini bostira olmaydi, ular baribir tashqariga chiqadi. Nizo va adovatni iloji boricha erta hal qilish kerak, aks holda, u insonni ich-ichidan yemiradi.

Bu maqol hayotiy haqiqatni aks ettirgan bo'lib, insoniy munosabatlarda :m ehtiyotkor bo'lishni va dushmanlik o'rniga tinchlikka intilishni tavsiya etadi.

Yazın qatıĭlansa, qışın sewnür. Ma'nosi: "Yozda tirishgan kishi qishda sevinadi"[1:377].

Maqolining ma'nosi chuqur falsafiy va hayotiy tajribaga asoslangan. Uning mazmunini keng tahlil qilish uchun bir necha nuqtai nazardan yondashish mumkin. "Yazın" – bahor yoki yoz faslini anglatadi, bu esa odatda ekin ekish,



mehnat qilish va hosil olish mavsumidir. "Qatig'lansa" – qattiq mehnat qilish, tirishish, intilish degan ma'noda ishlatiladi. "Qışın" – qish fasli, ya'ni natija, hosil yig'ish va yutuq mavsumi. "Sevinür" – quvonadi, baxtli bo'ladi. Bu maqolani so'zma-so'z tarjima qilsak, "Yozda qattiq ishlagan kishi, qishda quvonadi" degan ma'no chiqadi.

Bu maqol hayotiy tajribaga asoslangan. Inson o'z hayotida qanday mehnat qilsa, keyinchalik uning natijasidan bahramand bo'ladi. Yozda dalada ter to'kib, yer haydab, urug' ekkan dehqon qishda hosilidan bahramand bo'ladi. Mehnat qilmagan, dangasa kishilar esa qishda qiynalib qolishi mumkin. O'zbek xalq maqollari orasida "Yozda miyyang qaynasa, qishda qozoning qaynar" ko'rinishidagi maqollar ham insonlarni mehnatsevarlikka undaydi.

Yoshligida ilm olish, tajriba orttirish uchun harakat qilgan inson keksalikda uning mevasini ko'radi. Yoshligida dangasalik qilgan odam esa keyinchalik pushaymon bo'lishi mumkin. Kimki hozir mehnat qilib, sarmoya kiritib, bilim va tajriba orttira olsa, keyinchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. Bo'sh vaqtini behuda sarflagan kishi esa muvaffaqiyatga erishishdan uzoq qoladi. Talaba yoshligida tinimsiz o'qib, bilim olsa, kelajakda yaxshi kasb egasi bo'lib, quvonadi. Bu maqol insonni mehnat qilishga, harakat qilishga va kelajakka tayyorgarlik ko'rishga undaydi. Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun yoshligida yoki hozirgi vaqtda tinimsiz ishlash kerak. Aks holda, kelajakda qiynalib qolish ehtimoli katta. Demak, yozda (yoshligimizda, kuchimiz bor paytda) tirishib mehnat qilsak, qishda (keksayganda, natija kerak bo'lganda) sevinamiz.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ati-t-turk" asarida maqollarning juda katta xazinasini jamlangan. Ularning bir qismida tabiat hodisalari misolida hayot, turmush tashvishlari o'z aksini topgan. Ayni mana shu maqollar yaratilishiga ko'ra ancha qadimiydir. Zero, inson dastlabki jiddiy hukmlarni tabiatga, tabiat hodisalariga, o'simlik va hayvonot olamiga qarab chiqargan. Tabiat bilan bog'liq maqollarning katta qismi o'zining majoziy ma'nolari bilan e'tiborni tortadi. Ular ayni paytda kishilik jamiyatiga xos bo'lgan ko'plab axloqiy-ma'naviy hodisalarning mazmun va mohiyatini aniqlashda, ularni aniqroq tasavvur etishda, amaliyotda qo'llash jarayonida yanada katta ahamiyat kasb etadi. Asardagi maqollar mazmuni tarixiy hayot davomida son va mazmun jihatdan xalq og'zaki ijodi namunalari hisobiga yangi-yangi variantlari vujudga kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qoshg'ariy, Mahmud. Devonu lug'ati-t-turk (Turkiy so'zlar devoni). Nashrga tayyorlovchi Q. Sodiqov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2017. – 488b.
2. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2014, 47-6er
3. To'xliyev B. Baddiy tafakkur qomusi / Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Bayoz, 2014. – 256 b.
4. To'xliyev B. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: O'zbekiston, 1991. – 246 b.
5. O'zbek xalq maqollari. Mas'ul muharrir filologiya fanlari nomzodi Sh. Turdimov «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2005. – 258 b.



6. To'ra Mirzayev. "So'zdan so'zning farqi bor". 2018.

7. Раҳмонов Н., Жўраев М., Турдимов Ш., Эшонқулов Ж. ва бошқ. Туркий ёзма ёдгорликлар ва фольклор. – Тошкент: Tafakkur avlodi, 2020. – 296 б.

XALQ DOSTONLARIDA ALISHER NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO DO'STLIGI TALQINI

Erkinova Madinaxon Umid qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 2-bosqich talabasi

madinaerkinova221@gmail.com

Annotatsiya: Tarixda yashab faoliyat yuritgan shaxslarning badiiy iste'dodi, she'riyati va adabiy merosini o'rganish, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik, adabiyotshunoslik sohalarining muhim vazifalaridan biri sanaladi. O'z davrida ilm va san'at, madaniyat va ma'rifat rivojiga hissa qo'shgan Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy siymosining mushtarak jihatlarini o'rganish, xalq og'zaki ijodida bu ikki inson obrazining yaratilishi masalasini kuzatish ehtiyoji mavjud. Navoiy va Husayn Boyqaro obrazi xalq og'zaki ijodi, xususan, rivoyat, afsona, ertak va naqlardagi badiiy talqinini ilmiy aspektda kuzatish adabiyotshunoslikdagi kemptik jihatlarini to'ldirishga xizmat qiladi. Xalq orasida sevimli qahramonga aylanib ulgurgan Navoiy va Husayniy shaxsiyati, do'stlik rishtalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu ikki shaxs muttasil ravishda el-yurt farovonligini ko'zlab harakat qilgan. Xurosondagi ilm-adab, san'at ahlini bir joyga jamlab, barcha shart-sharoitlarni yaratib bergan. Natijada ularning bu xislatlari og'izdan og'izga o'tib, qahramonlik eposlariga aylanib ketgan. Maqolada rivoyatlar zaminidagi buyuk do'stlik, sadoqat, vatanga muhabbat masalalari Navoiy va Husayn Boyqaro siymosi orqali kuzatilgan.

Kalit so'zlar: Xuroson, vazir, elchi, bulbul, bosh, qilich, an'ana, do'stlik.

Annotation: The study of the artistic talent, poetry and literary heritage of individuals who lived and worked in history is one of the important tasks of textual studies, literary source studies, literary studies. There is a need to study the common aspects of the figures of Husayn Boykaro and Alisher Navoi, who contributed to the development of science and art, culture and enlightenment in their time, and to observe the issue of the creation of the image of these two people in folk oral literature. Observing the artistic interpretation of the image of Navoi and Husayn Boykaro in folk oral literature, in particular, in legends, myths, fairy tales and proverbs, from a scientific perspective serves to fill the gaps in literary studies. The study of the personalities and friendship of Navoi and Husayn, who became beloved heroes among the people, shows that these two individuals consistently worked for the welfare of the people and the country. The people of Khorasan, who were educated, literate and artistic, gathered together and created all the conditions. As a result, their qualities were passed down from mouth to mouth and turned into heroic epics. The article examines the issues of great friendship, loyalty and love for the homeland in the realm of legends through the figures of Navoi and Husayn Boykara.

Key words: Khorasan, minister, ambassador, nightingale, head, sword, tradition, friendship.

Tarix asrlar davomida ajdodlarimizning bosib o'tgan shonli hayotining guvohidir. O'zbek xalqining zabardast o'g'lonlari yurt va vatan tinchligi yo'lida kechani kecha, kunduzni kunduz demay harakatda bo'lishgan. O'z davrining



DÜŞÜNCELER	
Rahmonova Shahlo Rashidovna. O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA FAOL AYOL TASVIRI	135
Abdullayeva N.M. TURKIY XALQLAR ADABIYOTI VA XALQ OG'ZAKI IJODI MASALALARI	144
Заки Арсланович Алибаев. СОВРЕМЕННАЯ БАШКИРСКАЯ ПОЭЗИЯ В КОНТЕКСТЕ ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	150
Акжолова Таңнура Нурбековна. КАРЫЛАРГА БОЛГОН МАМИЛЕНИН ЖОМОКТОРДО КАМТЫЛЫШЫ	158
Begmatova Dildora Abdunematovna. MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'ATI-T- TURK" ASARIDAGI AYRIM MAQOLLAR TASNIFI	163
Erkinova Madinaxon Umid qizi. XALQ DOSTONLARIDA ALISHER NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO DO'STLIGI TALQINI	171
Mansurova Yulduz Faxriddinovna. MUZAFFAR MIRZO IJODIDA TARIXIY OBRAZLAR TALQINI	175
Nizomjonova Durdona Nizomjonovna. TUSHUNISH - O'RGANISHNING BOSH MEZONI (S. AYNIYNING "ESKI MAKTAB" QISSASI ASOSIDA)	179
Qurbonboyeva Mohidil Isroil qizi. "ARBAIN" VA "NAZM UL-JAVOHIR" DAGI TIL OFATIGA: HIKMATLAR VA HADISLAR HAQIDA	184
Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi. O'ZBEKISTONDA "MAJOLIS"NING O'RGANILISHI	189
Avezova Maktuba To'rayevna. YASSAVIY VA UBAYDIY HIKMATLARIDA ILOHIY ISHQ TAJALLISI	193
Мухаббат Масадикова Гайбуллаевна, Қойшыбай Арайлым. TÜRK HALK HİKAYELERİNDE ANLATI YAPISI	198
Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna, Almanova Sumbula Usmanovna. ALISHER NAVOIY SHAXSINING JAMIYATDAGI NUFUZI	205
II SHU'BA. HOZIRGI TURKIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI	
Ravshanxo'ja Rasulov. TERMIN – TERMINOLOGIK BIRLIK	213
Mirzaqulov Tursunali O'tayevich. TURKIY TILLAR MORFEMALARI BIRIKUVIDAGI AYRIM CHEKLOVCHI OMILLAR HAQIDA	218
Е.М. Молдасанов, Абдувалитов Н.Б. АНА ТІЛІНІҢ СӨЗ СЫРЫ	222
Axmedova Shaxnozaxon Farxod qizi. TERMIN, ATAMA, SO'ZNING FARQLI VA O'XSHASH XUSUSIYATLARI	227
Esayeva Dilafruz Azamatovna. ONA TILI IMKONIYATLARINI KO'RSATUVCHI TIL BIRLIKLARI	233
Sharipova Xumora Zayniddinovna. OLMOSHLARNING KONTEKSTDA QO'LLANISHI	236
Umarova Diafruz Razzakberdiyevna. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQOTI VA BOSHQA TURKIY TILLAR BILAN TAQQOSI	239

